

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT» FAKULTETI

«Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga tavsiya etildi»
«Moliya va soliqlar» kafedrası
mudiri **dots.Q.Bazarov**

«_____» _____ 2016 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: IQTISODIY ISLOHATLAR SHAROITIDA
MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALARNI SOLIQQA
TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(O'zbekiston Respublikasi misolida)**

BAJARDI: «Buxgalteriya hisobi va audit»
fakulteti «Soliqlar va soliqqa tortish» ta'lim
yo'nalishi 4-kurs talabasi **Kenjaboev
Bekzodbek Maqsudovich**

ILMIY RAHBAR: «Moliya va soliqlar»
kafedrası katta o'qituvchisi **Yusupov O.A.**

MUNDARIJA

	bet.
KIRISH.....	3
I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALARNI SOLIQQA TORTISHNI IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	11
1.1. Soddalashtirilgan soliq tizimida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni o'ziga xos xususiyatlari.....	11
1.2. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni iqtisodiy mohiyati va nazariy-huquqiy asoslari.....	21
II-BOB. MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALARNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI AMALDAGI HOLATINI TAHLILI.....	27
2.1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar va soliq solish ob'ektini aniqlash tartibi.....	27
2.2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq stavkalari va taqdim etilgan preferentsiyalar.	42
2.3. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish tartibini amaldagi holatini tahlili.....	50
III-BOB. IQTISODIY ISLOHATLAR SHAROITIDA MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALARNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	57
3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari.....	57
3.2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini takomillashtirish.....	66
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	80
ILOVALAR	92

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi, hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotini etakchi soha va tarmoqlarining zamon bilan hamnafas faoliyat yuritishiga barcha zarur sharoit yaratib berilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilayotgani, soliq sohasidagi islohatlar hayotimizga izchillik bilan joriy etilayotgani erishilayotgan samarali yutuqlarimizning mustahkam poydevorini tashkil etmoqda.

Soliq sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror su'ratlar bilan rivojlanib ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilanishiga zamin yaratmoqda.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarning o'ziga xos bir qator xususiyatlari va afzalliklari mavjud bo'lib, bozor kon'yukturasiga oson moslashuvchanligi, yangi ish o'rinlari yaratish orqali, ishsizlikni oldin olish, yirik biznes sub'yektlari uchun samarasiz sohalarda faoliyat ko'rsatishda qulayligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko'paytirish imkoniyatiga ega ekanligi, kichik korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun ko'p miqdorda aylanma mablag'lar talab etilmasligidadir.

Mamlakatimizda mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishda davlatning katta kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarini ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga ruxsat berishlik, ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2016 yil 15 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil qilishni soddalashtirilganligi, davlat organlari va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilganligi ta'kidlab o'tildi:

«Davlat organlari va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015 yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik sub'yekti internet tarmog'i orqali yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013-2014 yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va ularning faoliyat yuritishini engillashtirish bilan bog'liq 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, yangi tartib bo'yicha, agar shaxs soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish bilan bog'liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lsa va huquqbuzarlik aniqlanganidan so'ng 30 kun ichida davlatga etkazilgan zararni to'liq qoplasa, unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi va u javobgarlikka tortilmaydi.

Agar tadbirkorlik sub'yekti soliq va bojxona qonunchiligini buzgan bo'lsa, uning mulki faqat sud qaroriga binoan musodara qilinishi mumkinligini belgilaydigan qonun normasi joriy etildi, da'vo arizasini ko'rib chiqish muddatlari ham sezilarli ravishda qisqartirildi.

Endi mikrofirmalar, kichik korxona va fermer xo'jaliklari faoliyati to'rt yilda bir marta, boshqa xo'jalik sub'yektlari faoliyati esa uch yilda bir marta rejali tartibda tekshiriladi va bunday tekshiruvlar faqat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi»¹

¹ Karimov.I.A. Bosh maqsadimiz-mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohatlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.–“Xalq so'zi”, 2016 yil 16 yanvar №11 (6446)

Mikrofimalar va kichik korxonalarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish respublikamiz taraqqiyotini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mulkchilikning barcha shakllaridagi kichik biznes sub'yektlari faoliyatini erkinlashtirish va soliqlar vositasida rag'batlantirish iqtisodiy taraqqiyot barqarorligini belgilovchi eng qulay hamda iqtisodiy jihatidan samarali usul hisoblanib, iqtisodiyot islohatlari istiqbollarini asosiy yunalishlaridan birini tashkil etadi. Bu islohatlarning samarasi, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlar vositasida kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rag'batlantirish va kichik biznes sub'yektlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi oldida turgan qator iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni echishda, shu jumladan bozorlarni tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholini ish bilan bandligini tashkil etishda bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lmish kichik biznesning ahamiyati beqiyosdir. Hozirga kelib kichik biznes sub'yektlari yalpi ichki mahsulotning uchdan bir qismini bermokdalar.

Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohatlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri soliqlar muammosidir. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish tartibini soddalashtirish va soliq qonunchiligini takomillashtirishga asosiy e'tibor berilmoqda. Eng avvalo, ular ishlab chiqarishni, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, aholining real daromadlarini va iste'mol talablarini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, soliqlar va to'lovlarni birxillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Soliqqa tortish tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bevosita ishlab chiqarish o'sishini, xizmatlar doirasini kengayishini, kichik biznes sub'yektlarning moliyaviy-iqtisodiy faolligini oshirishni va kichik biznes sub'yektlarini tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirishni taqazo etadi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish mexanizmi takomillashtirish

yo'nalishlarini qamrab oluvchi mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Soliq qonunchiligida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini o'rganish va rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribasi asosida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmi bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borilishi lozim.

Ushbu bitiruv malakaviy ish xajmining cheklanganligini hisobga olib bitiruv malakaviy ishimizda biz faqatgina iqtisodiy islohatlar sharoitida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishdagi mavjud muammosini o'rganish bilan cheklanmoqdamiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi soddalashtirilgan soliq tizimida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni o'ziga xos xususiyatlari, mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni iqtisodiy mohiyati va nazariy-huquqiy asoslari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar va soliq solish ob'yektini aniqlash tartibi, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq stavkalari va taqdim etilgan preferentsiyalar, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish tartibini amaldagi holatini tahlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Aniqlab olingan maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini nazariy jihatidan o'rganish va asoslash.
- mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmining huquqiy asoslarini o'rganish.

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish tartibini amaldagi holatini tahlil qilish.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish va takliflar berish.

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishini tadqiqot ob'yekti va predmeti. Ma'lumki, har qanday izlanishlarning ob'yekti mavjudligidan kelib chiqqan holda ilmiy izlanishning ob'yekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani Davlat soliq inspeksiyasida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish bo'yicha vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar bitiruv malakaviy ishini tadqiqot ob'yektini tashkil etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini amaldagi holatini tahlili jaryonida vujudga kelgan ilmiy yangiliklarini soliq amaliyotiga tatbiq etish bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot uslubiyati va uslublari. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi va Moliya Vazirligining ko'rsatmalari, shu soha bo'yicha yozilgan xorijiy hamda respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan yaratilgan nazariy, amaliy, ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, turli matbuot

organlarida e'lon qilingan materiallar hamda internet tarmog'i ma'lumotlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot natijalarining ilmiy jihatidan yangilik darajasi. Iqtisodiy islohatlar sharoitida soddalashtirilgan soliq tizimida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni iqtisodiy mohiyati va nazariy-huquqiy asoslari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar va soliq solish ob'yektini aniqlash tartibi, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq stavkalari va taqdim etilgan preferentsiyalar, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish tartibini amaldagi holatini tahlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini nazariy va amaliy jihatidan asosli ravishda o'rganildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar tizimi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy jihatdan yangiligi quyidagilarda yaqqolroq namoyon bo'ladi:

- soddalashtirilgan soliq tizimida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish asosli ravishda o'rganildi va uning hozirgi sharoitdagi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari tadqiq qilindi.

- mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini amaldagi holatini tahlili va ularning asosiy yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yoritib berilgan.

- iqtisodiy islohatlar sharoitida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar tizimi ishlab chiqildi.

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari yoritib berildi va uni rivojlantirish bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishini o'rganilganlik darajasi. Mazkur mavzu mumtoz iqtisodchi olimlardan T.Gobbs, A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, N. Turgenev, D.Yum, A.Laffer, Lorents hamda hozirgi zamon iqtisodchi olimlaridan R.Kempbell, K.Makkonel, G.Menkyu, V.Terdoxlebov, S. Fisher, A.Voznesenskiy, V.Gluxov, E.Teyt, A.Shenk, E.Glazova, T.Yutkina, N.Milyakov, D.Chernik, A.Romanovlarning ilmiy izlanishlari va asarlarida bevosita yoki bilvosita yoritilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari hamda mamlakatimizda soliqlar nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda o'zining muayyan hissasini qo'shib kelayotgan olim hamda amaliyotchi mutaxassislardan V.Anoshkin, Q.Yahyoev, T.Malikov, E.Gadoev, O.Olimjonov, N.Xaydarov, Yo.Abdullaev, M.Yo'ldoshev, V.Galkin, V.Beganov, B.Toshmurodova, M.Rixsieva, F.Shamsutdinov, A.Vahobov, A.Jo'raev, N.Ortiqov, B.Xodiev, A.Bekmurodov, B.Tuxliev, M.Alimardonov, I.Zavalishina, SH.Toshmatov, B.Sanaqulova va boshqalar tomonidan ham o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishini tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqui. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati iqtisodiy islohatlar sharoitida soddalashtirilgan soliq tizimida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni o'ziga xos xususiyatlari, mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni iqtisodiy mohiyati va nazariy-huquqiy asoslari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar va soliq solish ob'yektini aniqlash tartibi, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq stavkalari va taqdim etilgan preferentsiyalar, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish tartibini amaldagi holatini tahlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari, uning o'ziga xos xususiyatlarini

hisobga olgan holda taklif va tavsiyalarni ishlab chiqarishda hamda amaliyotda tadbiriq etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va tarkibi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz kirish, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar qismidan tashqari uch bobdan iborat bo'lib, bu boblarda 7 ta savol mujassamlashgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy natijalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy natijasi iqtisodiy islohatlar sharoitida soddalashtirilgan soliq tizimida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish, mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni iqtisodiy mohiyati va nazariy-huquqiy asoslari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar va soliq solish ob'yektni aniqlash tartibi, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq stavkalari va taqdim etilgan preferentsiyalar, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish tartibini amaldagi holatini tahlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini takomillashtirish va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda taklif va tavsiyalar berishdan iborat bo'ladi.

I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALARNI SOLIQQA TORTISHNI IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1.Soddalashtirilgan soliq tizimida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning katta kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarini ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga ruxsat berishlik, ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining ahamiyati kattadir.

Bular birinchidan, tovarlar va xizmatlar oshishi imkonini beradi.

Ikkinchidan, yangi ish o'rinlari vujudga keladi.

Uchinchidan, korxonalar faoliyatini tashkil qilishni soddalashtiradi.

To'rtinchidan, soliq hisobini yuritish oddiylashtiriladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona er solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Yagona soliq to'lovi kichik biznes sub'yektlarini qo'llab- quvvatlash maqsadida turli soliq va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi- bu shunday soliqqa tortish tizimi bo'lib, unda kichik biznes sub'yektlarini rag'batlantirish maqsadi qo'yilgan.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilar va yagona er solig'ini to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan soliqlar soliq qonunchiligida nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'rniga to'lanadi.

Soliq davri mobaynida, soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi "Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi 159- sonli qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'ini joriy etish to'g'risida gi PF 2086 sonli farmoni qabul qilindi.

1998 yildan 2005 yil 1 iyulgacha kichik korxonalar va mikrofirmalar yagona soliq va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalarni to'lar edi.

2005 yil 1 iyuldan boshlab amaldagi yagona soliq va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

Kichik biznes sub'yektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimini qo'llashning huquqiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi "Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risidagi" 159-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi "Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'ini joriy etish to'g'risida"gi PF-2086-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmoni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida 2003 yil 1 iyuldan boshlab savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi bekor qilindi, ular ushbu sanadan boshlab mulki shakli va xodimlarining sonidan qat'iy nazar yalpi daromaddan soliq va mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanar edilar.Dividend solig'ini faqatgina o'z aktsiyadorlariga dividend hisoblagan va to'lagan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari to'lardilar.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yuqoridagi soliqlardan tashqari faoliyat turlaridan qat'iy nazar quyidagi to'lovlarni ham to'lardilar.

1.Import tovarlar (ish, xizmatlar) bo'yicha bojxona to'lovlari (bojxona boji va yig'imlarini, aktsiz va qo'shilgan qiymat solig'ini.)

2.Savdo huquqini olish uchun yig'im, shu jumladan alohida tovarlar bilan savdo qilish huquqini beruvchi litsenziya yig'imi.

3.Yuridik shaxslarni qayd etish uchun yig'im.

4.Davlatning maqsadli fondlariga ajratmalar.

2007 yilga qadar mulk shakli va maqomidan qat'iy nazar barcha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.Ushbu korxonalar tomonidan yalpi daromad solig'ini hisoblash va byudjetga o'tkazib berish "Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yalpi daromad solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq amalga oshirilardi.

2008 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining kuchga kirguniga qadar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovini hisoblash tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 28.03.2007 yilda 1667-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 28.02.2007 yil 26-son va O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining 2007-22-son Karori bilan tasdiqlangan "Yagona soliq to'lovini xisoblab chikarish va to'lash tartibi to'grisidagi Nizom"ga muvofiq amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2006 yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" PQ-532-sonli qaroriga asosan 2007 yilning 1 yanvaridan boshlab ilgari to'lanadigan soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy to'lovlar o'rniga:

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari.
- lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.
- tayyorlov, ta'minot-sotish, brokerlik faoliyati, shuningdek komission shartnomalar (topshiriqlar) bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi joriy etildi.

Kichik biznesning o'ziga xos bir qator xususiyatlari va afzalliklari mavjud bo'lib, bozor kon'yukturasiga oson moslashuvchanligi, yangi ish o'rinlari yaratish orqali, ishsizlikni oldin olish, yirik biznes sub'yektlari uchun samarasiz sohalarda faoliyat ko'rsatishda qulayligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko'paytirish imkoniyatiga ega ekanligi, kichik korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun ko'p miqdorda aylanma mablag'lar talab etilmasligidadir.

Kichik biznes sub'yektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri- bu barcha soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortish shartlarini yagonalashtirish, adresli asoslanmagan imtiyozlarni bekor qilish va soliq yukini kamaytirishdir.

Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lashga o'tishlik ixtiyoriydir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 aprel 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash" to'g'risidagi qaroriga muvofiq byudjetga soliq to'lovlari ixchamlashtirildi va kichik biznes sub'yektlari uchun yagona soliq to'lash uchun joriy etildi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi yoki yagona soliq to'lanishini nazarda tutuvchi soliq solishning soddalashtirilgan tizimi qo'llanilishi mumkin.

2008 yilga qadar soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga soliq solish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.04.1998 yil 159-sonli qarorida Soliq kodeksiga muvofiq ravishda o'zgartirish va qo'shimchalar aks ettirilgan holda soliq solishning soddalashtirilgan tizimi quyidagi tarkibga ega bo'lgan:

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi.
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi.
3. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona er solig'i.
4. Alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq.
5. Lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning yalpi tushumidan yagona soliq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-744-son qarori va 2007 yil 23 noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007 yil 30 noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov tomonidan tasdiqlangan 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 23-moddasida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

1. Yagona soliq to'lovi.
2. Yagona er solig'i.
3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish

majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i.

- soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston

- Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i.

- agar soliq qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aktsiz solig'i.

- agar soliq qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, erqa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.

- bojxona to'lovlari.

- yagona ijtimoiy to'lov.

- davlat bojlari.

- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi

- xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovini to'lovchilar bundan mustasno).

- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

1.1.1- jadval

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri soliqlarning tutgan o'rni. (mlrd. so'm)²

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil (prognoz)
Daromadlar, davlat maqsadli jamg'armalarisiz - jami	20614,1	25104,9	30 160,8	36184,9	40 505,8
Bevosita(to'g'ri) soliqlar	5196,4	6583,1	7790,4	8554,3	9338,5

² <http://www.mf.uz> –O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	917,2	1239,0	1302,3	1284,8	1266,0
2.	Savdo va umumiy ovkatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	703,5	817,3	989,8	1193,1	1383,2
3.	Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	538,5	755,1	911,6	1067,1	1237,9
4.	Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	2372,7	2769,7	3313,9	3648,8	4040,4
5.	Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq	218,1	342,1	505,0	617,0	742,5
6.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	446,4	659,9	767,8	743,5	668,5

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda
«O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qaroriga
muvofiq 2016 yilda davlat byudjetining daromadlar qismida to'g'ri soliqlar
9338,5 mlrd.so'm rejalashtirilgan bo'lib, shundan, yuridik shaxslardan olinadigan
foyda solig'i 1266,0 mlrd.so'm, savdo va umumiy ovkatlanish korxonalari, shu
jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi
1383,2 mlrd.so'm, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi
1237,9 mlrd.so'm, jismoniy shaxslarning daromad solig'i 4040,4 mlrd.so'm,
yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha

olinadigan qat'iy belgilangan soliq 742,5 mlrd.so'm, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 668,5 mlrd.so'mdan iborat (1.1.1-jadval).

1.1.2- jadval

Egri soliqlarning O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimida tutgan o'rni. (mlrd. so'm)³

Ko'rsatkichlar		2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil (prognoz)
Daromadlar, davlat maqsadli jamg'armalarisiz – jami		20614,1	25104,9	30 160,8	36184,9	40 505,8
Bilvosita (egri) soliqlar		11187,8	13039,4	15618,2	19115,8	22 298,1
1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	6784,5	7737,8	9123,1	10721,7	12 505,0
2.	Aktsiz solig'i	3115,5	3726,5	4506,0	5528,8	6480,0
3.	Bojxona bojlari	732,4	992,6	1142,0	1583,6	1717,4
4.	Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.	555,4	582,5	847,1	1281,7	1595,7

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qaroriga muvofiq 2016 yilda davlat byudjetining daromadlar qismida egri soliqlar 22 298,1 mlrd.so'm rejalashtirilgan bo'lib, shundan, qo'shilgan qiymat solig'i 12 505,0 mlrd. so'm, aktsiz solig'i 6480,0 mlrd. so'm, bojxona bojlari 1717,4 mlrd. so'm, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. 1595,7 mlrd. so'mdan iborat. (1.1.2 -jadval)

³<http://www.mf.uz> –O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

1.1.3- jadval

**O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimida resurs soliqlarini
tutgan o'rni. (mlrd. so'm)⁴**

Ko'rsatkichlar		2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil (prognoz)
Daromadlar, davlat maqsadli jamg'armalarisiz – jami		20614,1	25104,9	30 160,8	36184,9	40 505,8
Resurs to'lovlari va mulk solig'i		2746,4	3755,5	4521,4	5741,8	5806,5
1.	Mol - mulk solig'i	642,0	831,4	1135,0	1716,7	1874,0
2.	Er solig'i	446,0	646,3	665,2	929,6	873,5
3.	Er osti boyliklaridan foydalanganlik soliq	1585,3	2180,1	2595,8	2931,8	2874,6
4.	Suv resurslaridan foydalanganlik soliq	73,1	97,7	125,4	163,7	184,4

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qaroriga muvofiq 2016 yilda davlat byudjetining daromadlar qismida resurs soliqlari 5806,5 mlrd.so'm rejalashtirilgan bo'lib, shundan mol-mulk solig'i 1874,0 mlrd. so'm, er solig'i 873,5 mlrd.so'm, er osti boyliklaridan foydalanganlik soliq 2874,6 mlrd.so'm va suv resurslaridan foydalanganlik soliq 184,4 mlrd. so'mdan iborat. (1.1.3-jadval)

1.1.4- jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijrosi⁵

Ko'rsatkichlar		2013 yil mlrd.so'm	2014 yil mlrd.so'm	2015 yil mlrd.so'm
Daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz) - jami		26 223,2	31 730,5	36 492,7
1.	Bevosita soliqlar	6 353,7	7 433,0	8 798,5

⁴ <http://www.mf.uz> –O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

⁵ <http://www.mf.uz> –O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1 038,8	1 120,2	1 180,5
1.2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	832,6	954,4	1 207,8
1.3	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar	755,0	967,9	1 191,7
1.4	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	2 717,3	3 261,7	3 800,7
1.5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	415,6	553,1	681,5
1.6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	594,4	575,7	736,2
2.	Bilvosita soliqlar	13 398,6	16 852,3	19 193,8
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	7 552,5	9 476,1	10 850,9
2.2	Akstiz solig'i	4 168,2	4 941,1	5 618,5
2.3	Bojxona boji	1 007,4	1 350,0	1 481,5
2.4	Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliq	670,5	1 085,1	1 242,9
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	3 888,2	4 311,5	4 816,1
3.1	Mulk solig'i	1 011,6	1 273,7	1 393,1
3.2	Er solig'i	583,4	647,5	750,1
3.3	Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	2 190,9	2 275,6	2 514,5
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	102,4	114,7	158,4
4.	Boshqa daromadlar	2 582,7	2 473,7	3 684,4

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijrosini tahlil qiladigan bo'lsak, davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari 2013 yilda 26223,2 mlrd.so'mga bajarilgan bo'lib, yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar 755,0 mlrd.so'mni 2014 yilda 31730,5 mlrd.so'mga bajarilgan bo'lib, yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar 967,9 mlrd.so'mni, 2015 yilda 36492,7 mlrd.so'mga bajarilgan bo'lib, yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar 1191,7 mlrd.so'mni tashkil etgan. (1.1.4-jadval)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik biznes sub'yektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri- bu barcha soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortish shartlarini yagonalashtirish, adresli asoslanmagan imtiyozlarni bekor qilish va soliq yukini kamaytirishdir. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining ahamiyati kattadir.

1.2. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishni iqtisodiy mohiyati va nazariy-huquqiy asoslari

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyot barqarorligini, ko'p jihatidan iqtisodiy o'sish su'ratlarini belgilash bilan birga aholining ma'lum qismining bandligini kafolatlaydi, shuningdek, bozor mexanizmiga tez moslashuvchanlik xarakteri orqali zarur iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan tez boyitadi, ayni paytda tashqi bozorga ham raqobotbardosh mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega ekanligi, uning fan va texnika yutuqlarini tez o'zlashtirish qobiliyatiga, xo'jalik tuzilmalarining qayishqoqligi va tez o'zgarayotgan sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish sharoitida soliq munosabatlarini takomillashtirish, jumladan, yagona soliq to'lovi va uning iqtisodiy mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatidan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Maxsus soliq rejimlari quyidagilarga taalluqli bo'ladi:

- 1.Yagona soliq to'lovi.
- 2.Yagona er solig'i.
- 3.Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Keltirilgan soliq rejimlari umumiy xususiyatlarga ega, masalan:

Umumdavlat soliqqa tortish tizimidagidan farqli ko'pgina soliq ob'yektlari o'rniga yagona soliqqa tortish ob'yekti o'rnatilgan: bular yalpi tushum, er uchastkasining maydoni, jihozlangan joy bo'lishi mumkin.

Asosiy faoliyat turi keltirilgan ob'yekt bo'yicha soliqqa tortiladi, ushbu korxona boshqa soliqqa tortish tizimiga asosan soliqqa tortiladi.

Ushbu soliqqa tortish tizimlari odatda imtiyoz va chegirmalarga ega emas, agarda imtiyozi bo'lsa ham chegaralangan holatlardagina.

Bu soliqqa tortish tizimidagi korxonalarni soliqqa tortish ularning moliyaviy-xo'jalik yuritish natijalariga bog'liq bo'lmaydi, chunki ular daromad foyda solig'iga tortilmasdan tushum va boshqalarga tortiladi.

Ularga nisbatan soddalashtirilgan hisoblash usuli, hisobot topshirish va soliq to'lash ko'zda tutilgan.

Ammo, ko'pgina o'xshashlik tomonlari bo'lishiga qaramasdan, ularning har birini soliq bazasini aniqlashda hamda boshqa elementlari, masalan soliq to'lash muddatlari, soliq bo'yicha hisobotlarning shakllari o'ziga xos maxsus xususiyatlarga va bir biriga o'xshamagan tomonlarga ega.

Soliq to'g'risidagi tushuncha asrlar davomida o'zgarib borgan. Soliqqa tortish nazariyasining rivojlanishi va takomillashib borishi bilan «soliq» tushunchasiga nisbatan qarash evolyutsion ravishda o'zgargan. Olimlar va jamoat arboblari soliq tushunchasiga faqatgina iqtisodiy qarashdangina emas, balki unga yuridik nuqtai nazardan ham ta'rif berishga uringanlar.

Har bir iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini unga beriladigan ta'riflar yordamida ochib beriladi. Shu tufayli savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovining iqtisodiy mohiyatini yoritishda, unga mumtoz va hozirgi zamon iqtisodchi olimlarining bergan ta'riflari muhim ahamiyatga egadir.

Ikki yuz yil avval yashab o'tgan ingliz iqtisodchisi A.Smit soliqqa quyidagicha ta'rif bergan: «Soliq-bu davlat tomonidan qiymati va to'lash tartibi qonuniy qilib o'rnatilgan yuk demakdir»⁶

Soliqqa tortish iqtisodiy madaniyatning bir elementi sifatida davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tgan yoki o'tmaganligiga qaramasdan turib ularning hammasiga xosdir. Shuning uchun soliqqa tortishni insoniyatning rivojlanishidan ajratmagan holda ko'rib, uning noyob bir ixtirosi sifatida tan olish lozim.

⁶ Миляков Н. В. Налоги и налогообложение- М: Инфра- М, 2000-4 с

Shvetsariya iqtisodchisi S.Fisherning fikricha, «Soliqlar-bu jamiyatning tsivilizatsiya uchun to'lovidir»⁷

Soliqlar-qadimgi moliyaviy turkumlardan biridir. “Soliq” tushunchasi o'zining ildizlari bilan asrlar ichra ma'lum bo'lib, davlat xazinasiga undiriladigan har xil tushumlar ko'rinishda bo'lgan. Qadimda davlatni moliyalashtirish mexanizmlari paydo bo'layotgan bir davrda, soliqlar davlatning paydo bo'lishi va undagi jamiyatning sinflarga bo'linishida muhim iqtisodiy munosabat sifatida yuzaga kelgan. Soliqlarning hozirgi kundagi o'rni esa huquqiy ong, iqtisod, davlat nazorat tizimining yuqori darajadagi rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. Volterning so'zlari bo'yicha: “Soliq to'lash bu – o'z mulkini bir qismini qolgan qismini saqlash uchun berish demakdir”⁸

2007 yil 23 noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007 yil 30 noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov tomonidan tasdiqlangan 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 23-moddasida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'loviga quyidagicha ta'rif berilgan: “Ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

yagona soliq to'lovi.

yagona er solig'i.

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq”⁹

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'loviga respublikamiz olim va mutaxasssilaridan ham bir nechtasi ta'rif berib o'tgan. Professor Q. A. Yahyoev bu haqda to'xtalib, “Yagona soliq to'lovchilari bo'lib, korxonada ishlovchilar soni cheklangan me'yordan oshmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

⁷Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot.-Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.-3-bet.

⁸ Евстигнеев Э.И. Налоги и налогообложение –М: Инфра-М, 2001-5с

⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.-T.: Adolat, 2008 y.- 20-22 betlar

Savdo tashkilotlari va umumiy ovqatlanish korxonalari soliq to'lashning ixchamlashtirilgan tizimiga o'tishi munosabati bilan umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar hamda yig'imga o'rniga bitta soliq to'laydigan bo'ldilar. Bu yalpi tushumdan yagona solig'idir.”¹⁰ - deydi.

Bundan tashqari respublikamiz olimlaridan I.A.Zavalishinaning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi tushumdan yagona soliq va belgilangan daromaddan olinadigan yagona soliq o'rniga byudjetga yalpi daromad solig'ini va mol-mulk solig'ini to'laydilar.

Yalpi daromad solig'i to'lovchisini aniqlashda asosiy mezon bo'lib yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan korxona faoliyatining kodi hisoblanadi

Yalpi daromad solig'i ob'yekt bo'lib korxonaning yalpi daromadi hisoblanadi.”¹¹

Respublikamiz olimlaridan professor M.Yo'ldoshev va Y.Tursunovlar bu haqda to'xtalib, “Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- To'g'ri va egri soliqlar.
- Taqsimlanadigan va miqdoriy soliqlar.
- Qat'iy belgilangan va boshqariladigan soliqlar.
- Umumiy va maqsadli soliqlar.
- Muntazam to'lanadigan va bir martalik soliqlar.”¹² deb ta'rif berganlar.

Shuningdek, Respublikamiz amaliyotchi olimlaridan K.B. Urazovning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin “Mulk shakli va maqomidan qat'iy nazar barcha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.Ushbu korxonalar tomonidan yalpi daromad solig'ini hisoblash va byudjetga o'tkazib berish “Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yalpi daromad solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

¹⁰Yahyoev Q.A. “Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti”- Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.- 103, 127, 219-b

¹¹ Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot.-Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.-412-414-betlar.

¹² Yo'ldoshev M, Tursunov Y. Soliq huquqi-Toshkent: “Moliya” 2000-60-bet

Nizomga muvofiq soliqqa tortish ob'yekti bo'lib savdo va umumiy ovqatlanish korxonasining hisobot davridagi yalpi daromadi hisoblanadi"¹³

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq, mikrofirma va kichik korxonalarga soliq solishning yagona soliq to'lovi to'lashni nazarda tutuvchi soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan tartibdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashni tanlash huquqi berilgan.

Shu o'rinda, kichik biznes sub'yektlarini jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini tubdan oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmonini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Unga asosan 2005 yilning 1 iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun ilgari to'lab kelingan 4 ta to'lov- yagona soliq hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Yo'l va Maktab ta'limi jamg'armalariga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etilishi kichik biznes zimmasidagi soliq yukining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobini yakunida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mikrofirmalar va kichik korxonalarni o'ziga xos bir qator xususiyatlari va afzalliklari mavjud bo'lib, bozor kon'yukturasiga oson moslashuvchanligi, yangi ish o'rinlari yaratish orqali, ishsizlikni oldin olish, yirik biznes sub'yektlari uchun samarasiz sohalarda faoliyat ko'rsatishda qulayligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko'paytirish imkoniyatiga ega ekanligi, kichik korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun ko'p miqdorda aylanma mablag'lar talab etilmasligidadir.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqlar vositasida rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri - bu barcha soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortish shartlarini yagonalashtirish, adresli asoslanmagan imtiyozlarni bekor qilish va soliq yukini kamaytirishdir.

¹³ Urazoov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish.-Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004.-214-betlar.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishda davlatning katta kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarini ishga solish mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga ruxsat berishlik, ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

II-BOB. MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALARNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI AMALDAGI HOLATINI TAHLILI

2.1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar va soliq solish ob'yektini aniqlash tartibi

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona er solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilar va yagona er solig'ini to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Ushbu ko'rsatilgan soliqlar yagona soliq to'lovi, yagona er solig'i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq soliq qonunchiligida nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'rniga to'lanadi.

Soliq davri mobaynida, ushbu bo'limda nazarda tutilgan hollarda, soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun, soliq qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

1.Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i.

2.Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i.

3.Akstiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan akstiz solig'i.

4.Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.

5.Qonun hujjatlarida belgilangan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

6.Bojxona to'lovlari.

7.Yagona ijtimoiy to'lov.

8.Davlat bojlari.

9.Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

10.Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovini va yagona er solig'ini to'lovchilar bundan mustasno).

11.Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1.Mikrofirmalar va kichik korxonalar

2.xodimlarning sonidan qat'i nazar:

-savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari.

-lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

3. Oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yakka tartibdagi tadbirkor.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

1. Akstiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

2. Soliq qonunchiligiga muvofiq yagona er solig'i va soliq qonunchiligiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

3. Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Bunda:

- xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

- xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho''ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi.

- yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:


- o'zi ishlab chiqargan mahsulot bo'lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo'lmagan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish.

-vositachi, ishonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish.

-tayyorlov faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.


Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.




2.1.1-diagramma. 2015 yil 1 yanvar holati bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirma va kichik korxonalar soni va soliqlar tushumi¹⁴

2016 yil 1 yanvar holati bo'yicha kichik biznes sub'yektlari 207,1 mingta bo'lib, 2015 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 11,1 mingtaga ko'paygan.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari



2.1.2-diagramma. 2016 yil 1 yanvar holati bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirma va kichik korxonalar soni va soliqlar tushumi¹⁵



2.1.3-diagramma. Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirma va kichik korxonalar soni va soliqlar tushumining o'sishi¹⁶

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari

2016 yil 1 yanvar holati bo'yicha kichik biznes sub'yektlari tomonidan 2399,6 mlrd.so'm soliqlar undirilgan bo'lib, 2015 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 477,2 mlrd.so'm, ya'ni 124,8 foiz ortiq undirilgan.

2016 yil 1 yanvar holati bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar soni 105,7 foiz va soliqlar tushumi 124,8 foizga o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmasdan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Hisobot yili tugashi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi. Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob, shuningdek soliq qonunchiligida ko'rsatilgan to'lovchilar tomonidan, agar ular hisobot yili tugashi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblangan, belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmagan bo'lsa, yagona soliq to'lovini to'lagan hisobot davri uchun amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

- soliq qonunchiligida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni.

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa byudjetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, byudjet bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblar va ma'lumotnoma:

- yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sankstiyalar qo'llanilmaydi.

- yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirib taqdim etilsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sankstiyalar qo'llaniladi.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar soliq qonunchiligida belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi kerak.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan

o'tkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1 oktyabrdan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to'laydi.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan yagona soliq to'lovi to'lovchilarda joriy soliq davrining ketma-ket keluvchi ikki choragi davomida savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat asosiy faoliyat turi bo'lmasa, soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibga muvofiq umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishga haqli.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo'yicha soliq qonunchiligida belgilangan shartlarga javob bermasalar, ular kelgusi yil boshidan e'tiboran umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishi kerak, bundan soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan yuridik shaxslar, bundan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno, yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan soliq qonunchiligida belgilangan tartibda qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Hisobot yili tugaganidan keyin soliq qonunchiligida belgilangan shartlarga javob bermay qolgan mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 fevraldan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha yozma bildirish taqdim etishi shart. Soliq to'lovchi tomonidan yozma bildirishning belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga berilgan roziligi deb hisoblanadi.

Turli soliq solish ob'yektlari va yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak. Bunda soliq qonunchiligida ko'rsatilgan

daromadlarga asosiy (soha) faoliyat turi uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Lotereya o'yinlarini tashkil qilish faoliyati bilan birga boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradigan yuridik shaxslar ushbu faoliyat turlari bo'yicha quyidagilarni to'laydi:

- agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirsalar, yagona soliq to'lovini yoki umumbelgilangan soliqlarni.

- agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmasa, umumbelgilangan soliqlarni.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga haqlidir.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan birinchi chorak uchun foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovi to'lash muddatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega, kechiktirilgan summalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda imtiyozli davr tugaganidan so'ng o'n ikki oy ichida teng ulushlar bilan to'lanadi.

Agar yagona soliq to'lovini to'lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashlari mumkin. Yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishni boshlaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etmagan holda

qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashga o'tishga hisobot yili boshlanishidan e'tiboran haqlidir.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni rad etish keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan yozma bildirish asosida faqat navbatdagi soliq davrining boshidan amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash soliq qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bo'yicha ijaraga olingan er uchastkalari uchun byudjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi, umumbelgilangan soliqlar to'lanadigan faoliyat turlarida foydalanilayotgan er uchastkalari bundan mustasno.

Yalpi tushum soliq solish ob'yektidir.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini, akstiz solig'ini va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni chegirgan holda (ushbu soliqlarni to'laydigan soliq to'lovchilar uchun) realizastiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizastiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

-qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizastiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga

bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi.

-savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun tovar oboroti.

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

-vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi.

-tayyorlov tashkilotlari uchun realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad.

-lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum.

-tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi. Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tadbqiq etilmaydi.

2.Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa daromadlar.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushadigan tushum soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Quyidagilarga soliq solish ob'yekti sifatida qaralmaydi:

1.Ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan akstiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar.

2.Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

3.Shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

4.Realizastiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

5.Mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

6.Byudjetdan berilgan subsidiyalar.

7.Agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar.

8.Olingan grantlar va insonparvarlik yordami.

10.Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonini (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar.

11.Vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud

boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk.

12.Ob'yekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi.

13.Telekommunikastiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar.

14.Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish ob'yektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim.

15.Investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish ob'yekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1.Davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar.

2.To'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar.

3.Dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan

bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbaida umumiy asoslarda soliq solinadi.

4.Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak.

5.Ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizastiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa.

6.Mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan baza soliq qonunchiligida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

- lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga.

- brokerlik tashkilotlari uchun bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga.

- vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun realizastiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

- yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar

amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi.

-yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Soliq to'lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1. Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda.
2. Bitim shartlari o'zgarganda.
3. Baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda.
4. Bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan yalpi tushumga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yalpi tushumga tuzatish kiritish soliq qonunchiligida ko'rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) etkazib beruvchi yalpi tushumga tuzatish kiritishni soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lib mikrofirmalar, kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar hisoblanadi va yalpi tushum soliq solish ob'yektidir.

2.2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi

bo'yicha soliq stavkalari va taqdim etilgan preferentsiyalar

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

2005 yil 20 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmoni qabul qilindi. U kichik biznes sub'yektlarining faoliyat ko'rsatish shart-sharoitini yaxshilashga, ularni soliqqa tortishni soddalashtirishga yo'naltirilgan.

Mazkur hujjat bilan quyidagi asosiy masalalar tartibga solinadi:

1.Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi tarkibining o'zgarishi, birxillashtirilgan soliq to'lovining joriy etilishi.

2.Joriy etilgan birxillashtirilgan soliq to'lovi to'lovchilari uchun imtiyozlar va qo'shimcha preferentsiyalar berilishi.

Farmonning amal qilishi faqat kichik biznes sub'yektlari - mikrofimalar va kichik korxonalarga tadbiiq etiladi. U yoki bu korxonaning yuqorida aytilgan sub'yektlar toifalarining birortasiga kiritilish mezonini bo'lib xodimlarning yillik o'rtacha soni, shu jumladan unitar (sho''ba) korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlaydiganlar soni hisoblanadi. Bunda uning qonun hujjatlari bilan belgilangan turli chegaraviy ko'rsatkichlarini hisobga olish lozim:

1.Ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan mikrofimalar uchun - ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda - ko'pi bilan o'n kishi.

2. Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan kichik korxonalar uchun:

- engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati - ko'pi bilan yuz kishi.

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat- ishlab chiqarish sohalari - ko'pi bilan ellik kishi.

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalar - ko'pi bilan yigirma besh kishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi «Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar» to'g'risidagi farmoniga binoan

Mikrofimalarda:

-ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan mikrofimalar uchun - yigirma (20) kishidan yigirma to'rt (24) kishigacha.

-xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda - o'n (10) kishidan o'n ikki (12) kishigacha.

-savdo va umumiy ovqatlanish sohasida- besh (5) kishidan olti (6) kishigacha.

Kichik korxonalarda:

- engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati - ko'pi bilan yuz (100) kishidan bir yuz yigirma(120) kishiga.

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat- ishlab chiqarish sohalari - ko'pi bilan ellik (50) kishidan oltimish (60) kishiga.

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalar - ko'pi bilan yigirma besh (25) kishidan o'ttiz (30) kishigacha oshgan holda ular uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar saqlanib qolinadi.

2015 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga kiritilgan o'zgartirish mikrofirma va kichik korxonalar xodimlarining eng yuqori sonini kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari ishga qabul qilingan hollarda 20 foizdan 50 foizgacha oshirildi.

2016 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 oktyabrdagi 439-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasi"ning 427-satriga o'zgartirish kiritilib, avtomobil xo'jaligi (XXTUT-51121) tarmog'ida faoliyat yurituvchi kichik korxonalarga xodimlar sonini 25 tadan 50 tagacha oshirish huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoniga asosan 2014 yilning 1 iyulidan boshlab kichik korxonalarda xodimlarning cheklangan soni yiliga o'rta hisobda amaldagidan ikki baravarga oshirildi:

- Qurilish materiallari sanoati - 200 nafar
- Engil sanoat - 200 nafar
- Oziq-ovqat sanoati - 200 nafar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qaroriga muvofiq 2016 yilda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lovining stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan:

2.2.1-jadval

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lovi stavkalari¹⁷

№	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari,	5*

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qarori

	2-7-bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	
2.	Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3.	Lombardlar	30
4.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
5.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
6.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
7.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60%dan ko'pni tashkil etadi)	30
8.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo tovarlari bundan mustasno:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi


*) Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga beradigan korxonalar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

**) Haq summasi (yalpi daromad).

2016 yil 1 yanvardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 5 foiz miqdorida belgilandi.

Shuningdek, bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (bojxona brokerlari) uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2015

yildagi soliq stavkasiga nisbatan 1 foizli punktga pasaytirilib, 2016 yil 1 yanvardan boshlab 5 foiz qilib belgilandi.



2.2.1-diagramma. 2016 yil 1 yanvardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi¹⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qaroriga muvofiq 2016 yilda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan:

2.2.2-jadval

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining stavkalari¹⁸

№	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1	Umumiy ovqatlanish korxonalari ulardan:	10


¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qarori

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qarori

	umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2	CHakana savdo korxonalari, 3 va 4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari:	
2.1	quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1
2.2	Joylashgan joyidan qat'i nazar:	
	alkogolli mahsulot, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'i va suyultirilgan gaz realizatsiyasidan tovar oboroti bo'yicha	4
3	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5
4	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1


Korxonalarga preferentsiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarish maqsadlari uchun chet eldan olib kiriladigan xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob-uskunalarini olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha engilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.



2.2.2-diagramma. 2015 yil 1 yanvar holati bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalangan kichik biznes sub'yektlari²⁰

2015 yil 1 yanvar holati bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalangan kichik biznes sub'yektlari soni 32,1 mingta bo'lib, korxona ixtiyorida qolgan mablag'lar miqdori 773,8 mlrd.so'mni tashkil etgan.




2.2.3-diagramma. 2016 yil 1 yanvar holati bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalangan kichik biznes sub'yektlari²¹

2016 yil 1 yanvar holati bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalangan kichik biznes sub'yektlari soni 34,1 mingta bo'lib, korxona ixtiyorida qolgan mablag'lar miqdori 795,2 mlrd.so'mni tashkil etgan.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari

²¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari



2.2.4-diagramma. Soliq imtiyozlaridan foydalangan kichik biznes sub'yektlari soni va korxona ixtiyorida qolgan mablaglar miqdorini o'sishi²²

Soliq imtiyozlaridan foydalangan kichik biznes sub'yektlari soni 106,1 foizga va korxona ixtiyorida qolgan mablag'lar miqdori 102,7 foizga o'sgan.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assostiastiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Soliq imtiyozini olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1050-sonli qarorida belgilangan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar uchun foyda solig'i, mol-mulk solig'i va mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi hamda Respublika yo'l jamg'armasiga

²² O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari

majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar 2018 yil 1 yanvargacha uzaytirildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalarga preferentsiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarish maqsadlari uchun chet eldan olib kiriladigan xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob-uskunalar olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha engilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli soliq imtiyozi bo'lib hisoblanadi.

2.3.Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va byudjetga undirish tartibini amaldagi holatini tahlili

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Kalendar yil soliq davridir.Yil choragi hisobot davridir.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan tushum soliq to'lovchining yalpi tushumiga to'liq miqdorda qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan foyda solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida yagona soliq to'lovini to'lash chog'ida hisobga olinadi.

To'lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma'lumotnomasi yoki chet elda soliq to'langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to'langan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 14 iyuldagi 49, 73, 2014-15-son Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida qaroriga muvofiq yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisobga olgan holda yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishga quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Yagona soliq to'lovini to'lovchi kichik korxona, asosiy faoliyat turi trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish bo'lib, bir necha er uchastkasiga ega, ma'muriy, ishlab chiqarish va savdo (firma do'koni) yuritilishi uchun egallagan xonalari:

1-son uchastka (1 200 kv. m (0,12 ga) maydonga ega ma'muriy bino) va 2-son uchastka (1 500 kv.m (0,15 ga) maydonga ega firma do'koni) — Toshkent shahrida joylashgan;

3-son uchastka (3 800 kv.m (0,38 ga) maydonga ega ishlab chiqarish xonalari) — Chirchiq shahrida joylashgan.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarning erkin almashtiriladigan valyutada eksportning umumiy realizatsiyasi hajmidagi hissasi 50 foizni tashkil etadi.

Ilgarigi hisobot davrida (2015 yilning birinchi choragida) yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisobga olgan holda yagona soliq to'lovi qo'shimcha hisoblanmagan.

Ushbu korxonaning 2015 yilning yanvar — iyun oylari uchun ko'rsatkichlari quyidagicha:

2.3.1-jadval
Yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi²³
(ming so'm)

№	Davr	Soliq solinadigan yalpi tushum (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobining 040-satri)	Yagona soliq to'lovi	
			Stavka, foizda	Summa (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobining 120-satri)
1.	2015 yilning yanvar — mart oylari	98 400,052	2,5	2 460,052
2.	2015 yilning yanvar — iyun oylari	177 120,0	2,5	4 428,0

2015 yilda, 1 ga uchun belgilangan er solig'ining eng kam stavkalari quyidagicha:

Toshkent shahrida — 1 ga uchun 15 000 000 so'm;

Chirchiq shahrida — 1 ga uchun 7 799 717 so'm.

Asosiy faoliyat turi tovarlar ishlab chiqarish (sanoat sohasi) bo'lgan kichik korxonalarga, amalga oshirilayotgan faoliyat turiga nisbatan pasaytiruvchi koeffitsient belgilangan — 0,5 (K1).

Yagona soliq to'lovining eng kam miqdorining yillik hisob-kitob summasini aniqlaymiz:

²³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 14 iyuldagi 49, 73, 2014-15-son Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida qarori

$$EKMyast_{yil\ uchun} = 3 \times [(0,12 \times 15\,000\,000) + (0,15 \times 15\,000\,000) + (0,38 \times 7\,799\,717)] \times 0,5 = 10\,520\,838,7 \text{ so'm.}$$

Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori 2014 yilning ikkinchi choragi (aprel — iyun) uchun quyidagicha:

$$EKMyast_{chorak\ uchun} = 10\,520\,838,7 / 4 = 2\,630\,209,7 \text{ so'm.}$$

Belgilangan formulaga muvofiq butun korxona bo'yicha yagona soliq to'lovining hisob-kitob summasi 2015 yilning ikkinchi choragi (aprel-iyun) uchun quyidagicha:

$$HSyast_{chorak\ uchun} = (177\,120\,000 - 98\,400\,000) \times 5\% = 3\,936\,000 \text{ so'm.}$$

Yagona soliq to'lovining hisob-kitob summasi (3 936 000 so'm) yagona soliq to'lovining eng kam miqdoridan ortganligi uchun (2 630 209,7 so'm) yagona soliq to'lovi qo'shimcha hisoblanmaydi.(2.3.1-jadval)

2.O'ziga tegishli yoki ijaraga olingan omborxonalari mavjud bo'lmagan ulgurji savdo korxonasi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun Toshkent shahrida joylashgan ko'p qavatli binoda ofis xonalarini ijaraga olgan. Binoning egallagan umumiy maydoni -5000 kv. m. Yuridik shaxsning ijaraga olgan xonasiga to'g'ri keladigan ulushi -0,3ni tashkil etadi. Shunday qilib, Yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini aniqlashda er solig'i 1 500 kv.m (0,15 ga) dan kelib chiqib hisoblanadi.

Ilgarigi hisobot davri uchun (2015 yilning birinchi choragida) yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisobga olgan holda yagona soliq to'lovi qo'shimcha hisoblanmagan.

2015 yilda, Toshkent shahrida 1 ga uchun belgilangan er solig'ining eng kam stavkasi 15 000 000 so'mni tashkil etadi.

Ushbu ulgurji savdo korxonasining o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan omborxonalari mavjud emasligini e'tiborga olganda, asosiy faoliyat turi ulgurji savdo bo'lgan korxonalarga belgilangan, amalga oshirayotgan faoliyat turiga bog'liq holda pasaytiruvchi koeffitsient (K_1) qo'llanilmaydi.

Ushbu korxonaning 2015 yilning yanvar — iyun oylari uchun ko'rsatkichlari quyidagicha:

Yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi²⁴

(ming so'm)

№	Davr	Soliq solinadigan yalpi tushum (Yagona soliq to'lovi hisob- kitobining 040- satri)	Yagona soliq to'lovi	
			Stavka, foizda	Summa (Yagona soliq to'lovi hisob- kitobining 120-satri)
1.	2015 yilning yanvar — mart oylari	38 600,0	5	1 930,0
2.	2015 yilning yanvar — iyun oylari	69 480,0	5	3 474,0

Yagona soliq to'lovining eng kam miqdorining yillik hisob-kitob summasini aniqlaymiz:

$$EKMyast_{yil\ uchun} = 3 \times (0,15 \times 15\,000\,000) = 6\,750\,000 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori 2015 yilning ikkinchi choragi (aprel — iyun) uchun quyidagicha:

$$EKMyast_{chorak\ uchun} = 6\,750\,000 / 4 = 1\,687\,500 \text{ so'm.}$$

Belgilangan formulaga muvofiq butun korxona bo'yicha yagona soliq to'lovining hisob-kitob summasi 2015 yilning ikkinchi choragi (aprel — iyun) uchun quyidagicha:

$$HSyast_{chorak\ uchun} = (69\,480\,000 - 38\,600\,000) \times 5\% = 1\,544\,000 \text{ so'm.}$$

2015 yilning ikkinchi choragi (aprel — iyun) uchun yagona soliq to'lovining qo'shimcha hisoblangan summasi = $1\,687\,500 - 1\,544\,000 = 143\,500$ so'mni tashkil etadi.

Shunday qilib, yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan butun korxona bo'yicha 2015 yilning ikkinchi choragi uchun to'lanishi lozim bo'lgan yagona soliq to'lovining summasi $3\,617\,500$ so'mni ($3\,474\,000 + 143\,500$) tashkil etadi. (2.3.2-jadval)

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 14 iyuldagi 49, 73, 2014-15-son Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida qarori

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobini yakunlab xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lib mikrofirmalar, kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar hisoblanadi va yalpi tushum soliq solish ob'yektidir.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalarga preferentsiya berish-milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarish maqsadlari uchun chet eldan olib kiriladigan xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob-uskunalarini olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha engilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli soliq imtiyozi bo'lib hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Kalendar yil soliq davridir. Yil choragi hisobot davridir.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

III-BOB. IQTISODIY ISLOHATLAR SHAROITIDA MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALARNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirishda taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari

2015 yilda amalga oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferentsiyalar berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda soha ravnaqi uchun qulay sarmoyaviy muhit yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni chog'da soliq to'lovchilar zimmasiga tushadigan soliq yuki bosqichma-bosqich kamaytirib borilmoqda.

Preferentsiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriladigan imtiyoz, afzallik va ustuvor qulayliklar.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profistit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bajarildi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010 yildagi 47,1 foiz o'rniga 52 foizga o'sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va

kichik biznesni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishidir.

Aholi bandligini ta'minlash masalasi ham eng muhim vazifalardan biri bo'lib, 2016 yilda 990 mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etish, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirish hisobidan 660 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etish. Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan qator qonunlar va qonunchilik hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari va ma'muriy tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish uchun qat'iy tartib o'rnatish va ana shu idoralarning rahbarlari hamda mansabdor shaxslarining javobgarligini oshirish bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etildi.

Tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va ularning faoliyat yuritishini engillashtirish bilan bog'liq 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, yangi tartib bo'yicha, agar shaxs soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish bilan bog'liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lsa va huquqbuzarlik aniqlanganidan so'ng 30 kun ichida davlatga etkazilgan zararni to'liq qoplasa, unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi va u javobgarlikka tortilmasligi belgilandi.

Xususiy mulkdorlar va tadbirkorlarning qonuniy huquqlarini himoya qilish, ularning faoliyati kafolatlarini kuchaytirish masalasini hal etishda sud organlari rolini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Sudlar tegishli da'vo arizasi ko'rib

chiqilayotgan paytda tadbirkorlik sub'yekti nazorat organining qaroridan norozi bo'lsa, uning ijrosini to'xtatib turish huquqiga ega bo'ldi.

Agar tadbirkorlik sub'yekti soliq va bojxona qonunchiligini buzgan bo'lsa, uning mulki faqat sud qaroriga binoan musodara qilinishi mumkinligini belgilaydigan qonun normasi joriy etildi, da'vo arizasini ko'rib chiqish muddatlari ham sezilarli ravishda qisqartirildi.

Endi mikrofirmalar, kichik korxona va fermer xo'jaliklari faoliyati to'rt yilda bir marta, boshqa xo'jalik sub'yektlari faoliyati esa uch yilda bir marta rejali tartibda tekshiriladi va bunday tekshiruvlar faqat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi. Nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati erkinligini himoya qilishga oid qonunchilikni bir necha marta buzgan taqdirda, ularga nisbatan jinoiy javobgarlik choralari qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga bu borada tegishli normalar kiritildi. Bu tizim davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlar, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va mulkdorlar huquqlarining buzilishi haqidagi ariza va shikoyatlarni qabul qiladi. Ana shu tizim joriy etilganidan buyon o'tgan yarim yil davomida prokuratura organlariga 1 ming 500 dan ziyod tadbirkor murojaat qilgan. Eng muhimi, barcha murojaatlarning qariyb uchdan bir qismi tadbirkorlar foydasiga hal etilgan. Davlat organlari va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015 yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik sub'yekti Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013-2014 yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda Internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda. Shu yilning 1 yanvaridan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik

sub'yektlariga «yagona darcha» tamoyili asosida Davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi. Shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, ushbu tarmoqlar ishini yuritadigan tashkilotlarning hududiy korxonalariga texnik shartlarni olishdan tortib muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni amalga oshirib, ularni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish vakolatlari berildi.

Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan. Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga etgani yoki 1,8 barobar oshdi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, soliq yuki darajasini kamaytirishda yangi yo'nalishlardan biri bo'lgan soliq menejmenti tadbirlaridan foydalanish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Aynan tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati davomida samarali tashkil etilgan soliq menejmenti orqali korxonalarda mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxini imkon darajasida pasaytirishga, mahalliy xom ashyo materiallaridan foydalanish darajasini oshirishga, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va materiallar sarfi me'yorlarini optimallashtirishga erishish mumkinligi ko'rsatmoqda.

Mikrofirma va kichik korxonalarga nisbatan qo'llanilayotgan soliqqa tortish tartibining aynan qaysi birida soliq yuki past bo'lishi mumkinligi kichik korxonada o'tkazilgan soliq menejmenti tadbirlarini amalga oshirish orqali aniqlash mumkin. Soliqlarni rejalashtirish orqali erishilgan soliq tejami korxona sof foydasi uchun rezerv hisoblanib, korxona faoliyatini modernizastiyalash, yangi texnika va texnologiyalarni moliyalashtirish manbasi bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda xo'jalik sub'yektlari o'z faoliyatlarida soliq menejmenti tadbirlaridan foydalanishning zaruriyligi amaldagi soliq qonunchiligida ham o'z

aksini topgan. Mikrofirma va kichik korxonalarda soliqqa tortish tizimini tanlash imkoniyatining mavjudligi ular oldida qaysi soliqqa tortish tartibini tanlash asosiy o'rin tutadi.

Mazkur holatda mikrofirma va kichik korxonalar soliqlarni rejalashtirish tadbirlarini amalga oshirish orqali o'z faoliyatini amalga oshirishi lozim. Chunki soddalashtirilgan tartib doimo hamma mikrofirma va kichik korxonalarga bir hilda manfaatli bo'lmasligi mumkin. Soddalashtirilgan tartibda to'lanadigan asosiy soliq turi yagona soliq to'lovi korxonalarning oxirgi moliyaviy natijalariga bevosita bog'liq bo'lmasdan, yalpi tushumdan to'lanishi, ya'ni hisobot davrida korxona foyda yoki zarar bilan yakunlashidan qat'iy nazar to'lashi lozimligini e'tiborga oladigan bo'lsak, faoliyat sohasida kelib chiqib, aksariyat korxonalar uchun samarasiz soliqqa tortish tartibi sifatida ta'sir etmoqda.

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibida soliq to'lovchi, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ulanuvchi kichik korxonalar o'z ishlab chiqarish faoliyati davomida zarur bo'lgan xom ashyolarni qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda sotib oladilar va ushbu soliq miqdorini ishlab chiqarish tannarxi yoki davr xarajatlariga qo'shadilar, bu esa mahsulot tannarxining o'z o'zidan oshishiga olib keladi. Agar korxona bajarilgan ishlar narxini oshira olmasa, mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan xarajatlarini qiqartirishi lozim.

Iqtisodiy islohatlar sharoitida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish sharoitida yagona soliq to'lovi bo'yicha taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga egadir. Aynan mana shunday yagona soliq to'lovi bo'yicha taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirilishi davlatchiligimizning mustaqilliligi qaror topishi va yanada taraqqiy etishida hal qiluvchi omildir.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizastiya qilish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, byudjet soliq siyosatini takomillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf

etish, ularning faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda soliqlar orqali rag'batlantirish muhim ustuvor vazifalardan biridir.

Ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, maksimal darajada qulay investitsiya iqlimini yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli farmoniga asosan quyidagilar belgilandi:

- 2014-2015 yillarda Investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish samaradorligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

- 2014 yil 1 iyundan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlari talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik sub'yektlariga javobgarlik choralari qo'llash ta'qiqlanadi;

- tadbirkorlik sub'yektlariga yuridik javobgarlikning yangi choralarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, uch oydan oldin bo'lmagan muddatda kuchga kiritiladi;

- soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'laydigan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlovchi kichik tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliq tekshiruvidan o'tkazishga qo'llanilgan moratoriy 2017 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatgacha uzaytirildi;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ularning hisobvaraqlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda banklar xizmatlari uchun to'lovlar undirish amaliyoti bekor qilindi.

Shuningdek, farmonga ko'ra quyidagi tartiblar belgilandi:

- xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning soliq, moliyaviy hisobotlarni taqdim etmaslik va ularni ko'rsatilgan manzilda yo'qligi holatlarida ularning tijorat

banklaridagi hisobvaraqlari bo'yicha operastiyalarni to'xtatib turish davlat soliq xizmati organlari tomonidan faqat sudning tegishli qarori asosida amalga oshiriladi;

-2014 yilning ikkinchi choragi uchun soliq solishdan boshlab, yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari (chakana savdo tashkilotlaridan tashqari) qurilishi yakunlangan ob'yektni qabul qilish hujjati tasdiqlanganidan keyin 6 oy davomida, biroq ularning davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng bir yildan ko'p bo'lmagan davrda, yagona soliq to'lovi va yagona ijtimoiy to'lovni, ushbu to'lovlarning tasdiqlangan eng kam miqdorlarini hisobga olmagan holda, amalda bajarilgan ish hajmlaridan kelib chiqib to'laydilar;

-2015 yil 1 yanvardan boshlab, kichik tadbirkorlik sub'yektlari statistika hisobotlarini yilda bir marotaba taqdim etadilar, bunda statistika organlari har chorakda faoliyatning tegishli yo'nalishlari va sohalari bo'yicha tanlanma asosdagi o'rganishlarni o'tkazib boradilar;

-2014 yil 1 iyuldan boshlab ko'p mehnat talab qiladigan ayrim tarmoqlar, qurilish materiallari sanoati, engil sanoat, oziq-ovqat sanoati kichik korxonalarida xodimlarning cheklangan soni yiliga o'rta hisobda amaldagi 100 nafardan 200 nafarga oshirildi

Ilgari kichik tadbirkorlik sub'yektlari hisobvaraqlaridan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni Davlat byudjetiga to'laganda, ulardan ushbu to'langan summadan ma'lum miqdorda (*o'rtacha 0,5 foiz*) bank xizmatlari uchun haq undirilgan bo'lsa, mazkur farmon bilan kichik tadbirkorlik sub'yektlari uchun bank xizmatlariga to'lov undirish amaliyoti bekor qilindi. Bu esa kichik tadbirkorlik sub'yektlarining xarajatlarini tejash imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, 2014-2015 yillarga tasdiqlangan dasturga asosan, joriy yilning 2-choragida elektron raqamli imzo kaliti sertifikatining amal qilish muddatini 12 oydan 24 oygacha uzaytirishni nazarda tutuvchi amaldagi qonunchilikka o'zgartirish kiritilishi belgilab qo'yildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 15 apreldagi «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan

bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2164-sonli qarori bilan tadbirkorlik sub'yektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bir qator me'yorlar joriy etilishi belgilandi.

Xususan, qarorga asosan 2014 yil 1 iyundan boshlab, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi listenziyalanadigan faoliyatning va ruxsat etish xarakteriga ega hujjatlarning alohida turlarini bekor qilish, faoliyatning listenziyalanadigan turlarini va ruxsat etish xarakteriga ega tartibotlarni rasmiylashtirishning muddatlari va yig'implari miqdorlarini qisqartirish hamda ruxsat etish xarakteriga ega hujjat va listenziyalarni olish tartibotlarini yanada qisqartirish va soddalashtirish belgilab qo'yildi.

Shuningdek, tegishli organlarga 2015 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatda listenziyalanadigan 19 ta faoliyat turlariga «bir darcha» tamoyilini joriy etish, joriy yil oxirigacha tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan listenziya kelishuvlari shartlarini bajarish bo'yicha davriy hisobotlarni elektron shaklda taqdim etib borish uchun dasturiy mahsullarni ishlab chiqish va joriy etish vazifasi yuklatilgan.

Bundan tashqari 2014 yil 1 oktyabrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasining Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida:

- moliya, soliq, statistika va boshqa turdagi hisobotlarni interaktiv rasmiylashtirish va taqdim etish;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlarni, kommunal to'lovlarni, listenziya va ruxsat etish xarakteriga ega hujjatlar bo'yicha ko'rib chiqish va ularni olishda to'lanadigan yig'implar va davlat bojlarini Internet-banking tizimi orqali to'lash;
- ma'lumotnomalar olish va boshqa interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishni amalga oshirish imkonini beruvchi shaxsiy «tadbirkorlik sub'yektining kabineti» ishlashini ta'minlash yuklatilgan.

Ushbu tadbirlar natijasida tadbirkorlik sub'yektlari internet orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi, o'zlariga tegishli ma'lumotlarni shaxsiy kabinetidan elektron shaklda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Tadbirkorlikka qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va soliqlar vositasida rag'batlantirish maqsadida quyidagi taklif va amaliy tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

- mikrofirma va kichik korxonalarga yangi ish o'rinlarini yaratgan holda kasb xunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan taminlasa, mehnat shartnomasi asosida xodimlarga (bitiruvchilarga) to'lanadigan mablag'larga teng miqdorda bir yil muddatga mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod etish;

- kichik biznes sub'yektlariga innovastion faoliyatiga soliq imtiyozlari ko'lamini kengaytirish va innovastion faoliyatga sarflangan mablag'larga teng miqdorda yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish;

- yagona soliq to'lovi, yagona ijtimoiy to'lov kabi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashda joriy etilgan eng kam me'yorlarni mikrofirma va kichik korxonalarga hamda fermer xo'jaliklariga bekor qilish;

- ta'lim muassasalari bitiruvchilari tadbirkorlik bilan shug'ullansalar, davlat ro'yxatidan o'tkazishda undiriladigan davlat bojini to'lashdan ozod qilish;

- yakka tartibdagi tadbirkorlarga Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalini undirishda joriy yilning yanvar oyidagi eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib belgilanishi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaslik tartibini joriy etish.

Yuqorida bildirilgan fikrlar va muloxazalar mamlakatimizda tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularga yanada qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, soliq yukini kamaytirishga, moliyaviy faoliyatini kengaytirish, aholi bandligini ta'minlash va ular faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 2015 yilda amalga oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferenstiyalar berish, investistiyalar, avvalo, chet el investistiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes va

xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish hamda soha ravnaqi uchun qulay sarmoyaviy muhit yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

3.2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash mexanizmini takomillashtirish

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mikrofirma va kichik korxonalar zimmasidagi soliq yuki darajasi va una ta'sir etuvchi omillarning holati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki faoliyat yuritayotgan har qanday mikrofirma va kichik korxonalar uchun unga nisbatan qo'llanilayotgan soliqqa tortish tartibining ta'sir doirasi muhim bo'lib, iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etuvchi mazkur sub'yektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi soliqlar orqali mikrofirma va kichik korxonalar faoliyatini rag'batlantirish mumkin.

Bugungi kunda mikrofirma va kichik korxonalar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, ular zimmasidagi soliq yuki darajasini optimal variantini aniqlash masalasi muammoli masalalardan biri bo'lib, optimal soliq yukini belgilash lozim. Chunki soliq yukining optimal darajasi sub'yektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini rag'batlantirsa, davlat byudjetiga doimiy soliqlar tushumi bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan mikrofirma va kichik korxonalarga nisbatan amalda qo'llanilayotgan soliqqa tortish tartibi ham ular faoliyatiga bevosita ta'sir etib, kelgusi moliya yiliga nisbatan tegishli qaror qabul qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik sub'yektlari zimmasidagi soliq yuki darajasini tahlil etadigan bo'lsak, bugungi kunda mazkur sohadagi xorij amaliyotini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda soliq yuki darajasini aniqlash amaliyotlariga nazar soladigan bo'lsak, makro darajada soliq yukki mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan aniqlansa, mikro ya'ni tadbirkorlik sub'yektlari darajasida esa aksariyat mamlakatlarda korxonada yaratilgan qo'shilgan qiymatga nisbatan aniqlanadi. Moliyaviy xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotgan sub'yekt uchun xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan amalda qo'llanilayotgan soliqqa tortish mexanizmi, soliq yuki darajasi,

davlat tomonidan ularga nisbatan amalga oshirilayotgan soliq sohasidagi islohatlari muhim hisoblanadi.

Mikrofirma va kichik korxonalar zimmasidagi soliq yuki darajasiga uning kelgusi faoliyati chambarchas bog'liq bo'lib, soliq yukini kamaytirish evaziga tejalgan soliq summasini o'z faoliyatiga qayta reinvestitsiya qilganda nafaqat mahsulotning sifat darajasi oshishiga balkim, yangi ish o'rinlarini yaratilishiga, buning natijasida aholi daromadlari darajasining o'sishiga erishilishi mumkin. Mikrofirma va kichik korxonalar zimmasidagi optimal soliq yuki darajasi korxonaning barcha ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, korxonaning moliyaviy holatini baholash, likvidlilik, to'lovga layoqatlilik, investitsiyalarni samarali joylashtirish ko'rsatkichlariga, investitsiyalar va o'z kapitali rentabelligiga ta'sir ko'rsatib, ularni oshishi yoki kamayishiga olib keladi.

Amaldagi soliqqa tortish tizimida berilgan imtiyozlari etarli darajada rag'batlantirish darajasiga ega emas, yoki ulardan foydalanish jarayoni o'ta darajada murakkabdir. Soliqlar bo'yicha stavkalarni pasaytirish yoki soliqqa tortish bazasini kamaytirish evaziga mikrofirma va kichik korxonalar zimmasidagi soliq yuki darajasini pasaytirish mikrofirma va kichik korxonalar uchun o'z ishlab chiqarish faoliyatini modernizatsiyalash uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatini vujudga keltirgan bo'lardi. Yagona soliq to'lovi stavkalarini pasaytirish ko'rinishidagi soliq imtiyozlarini berilishi natijasida mikrofirma va kichik korxonalar erishadigan tejalgan foyda summasini o'z faoliyatiga qayta reinvestitsiya qilishi mumkin.

2004-2015 yillar davomida iqtisodiy o'sishning miqdoriy ko'rsatkichlariga erishishda kichik tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan imtiyozli soliqqa tortish tizimlarida faoliyat yuritish imkoniyatlarining yaratilganligi ham muhim ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lgan. Jumladan, mazkur yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan soliq qonunchiligi takomillashtirilib, soliq yuki darajasi bosqichma bosqich kamaytirib borildi, soliq to'lovchilarning faoliyatiga asossiz aralashuvlarga chek qo'yildi hamda ular faoliyatini soliqqa tortish tizimlari soddalashtirildi.

Sanoat, savdo va qurilish sohalarida faoliyat yuritayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar zimmasidagi soliq yuki darajasini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirishni izchil davom ettirish lozim.

Soliqlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va modernizatsiya qilishda, chunonchi, soliq to'lovchilarni ijtimoiy himoyalash, qo'llab quvvatlash hamda ularni tijorat faoliyatlariga keng imkoniyatlar yaratib berishga xizmat qilishi lozim.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqimiz hayot sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy o'zgarishlar bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini har taraflama chuqur bilishni talab etmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanish jarayoni, xalq xo'jaligining barcha sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillaridan tadbirkorona foydalangan holda o'z zimmasiga olgan ijtimoiy kafolatlarning moliyaviy bazasini mustahkamlash tadbirlarini shiddat bilan amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bir-biriga bog'liq tadbirlar ijrosining miqdor va sifat ko'rsatkichlari ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizdagi muvaffaqiyatimizni belgilaydi.

Bizga ma'lumki, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqimiz hayot sifatini oshirish bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri soliq tizimidir. Ayni kunga kelib, soliq tizimida ma'lum o'zgarishlar ro'y berib, u jahonning ilg'or davlatlari tajribasidan foydalanilgan holda rivojlanmoqda va takomillashtirilmoqda.

Darhaqiqat, mikrofirmalar va kichik korxonalarning soliq yuki darajasini qonuniy ravishda kamaytirish, kichik korxonalarga soliq bo'yicha imtiyoz va preferenstiyalar berish, ularning soliq munosabatlarini optimallashtirish hamda uni amalda ushlab turishdan kichik biznes sub'yektlari manfaatdor bo'lishlari uchun xizmat qilishi lozim. Chunki, kichik biznes sub'yektlari uchun optimal soliq yuki ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rag'batlantirsa, davlat byudjeti uchun doimiy daromad tushumini ta'minlaydi.

Hozirgi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, kichik korxona va mikrofirmalar uchun joriy etilgan, soddalashtirilgan soliq tizimi muhim shakllaridan biri bo'lgan yagona soliq to'lovi, uning undirilishi, yagona soliq

to'lovi bo'yicha bazaviy miqdorlarini qo'llanilishini takomillashtirish dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi.

Qonun hujjatlariga muvofiq, yagona soliq to'lovi birxillashtirilgan bo'lib, 2005 yilning 1 iyulidan boshlab quyidagi majburiy to'lovlarni to'lash o'rniga joriy qilingan edi:

- yagona soliq;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- Respublika yo'l jamg'armasi;
- Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Shunday qilib, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi umumbelgilangan tartibga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

- umumdavlat va mahalliy soliqlarning bir qatori o'rniga faqat bitta "yagona soliq to'lovi" to'lanadigan bo'ldi;

-soliqlar bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish uchun mehnat sarfi keskin kamaydi;

-soliq hisobotlarini topshirish bo'yicha soliq to'lovchilar buxgalteriyasi va qabul qilish bo'yicha soliq inspeksiyasi sarflaydigan vaqti keskin kamaydi, natijada soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarni kamaytirishga va soliq to'lovchida buxgalteriya xodimlari soni va soliq inspeksiyalarida xodimlar sonini qisqartirish imkoniyati paydo bo'ldi;

- soliq yuki optimallasishi va shu kabi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Milliy iqtisodiyotdagi jarayonlarning jadallasishi va soliq tizimidagi o'zgarishlar yagona soliq to'lovi stavkalarining yil sayin pasayib borishi uchun

zamin hozirladi. Masalan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun «yagona soliq to'lovi» stavkasi 2007 yilda 13 foizdan 10 foizga, 2008yilda 8 foizga, 2010 yilda 7 foizga va 2011 yilda 6 foiz, 2015 yilda 5 foizga tushirildi.

Bundan tashqari, yagona soliq to'lovi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida xususiyatlaridan kelib chiqib, yana boshqa stavkalar amal qilishi ham belgilab qo'yilgan.

Yagona soliq to'lovi to'g'ri soliqlardan biri bo'lib, u kichik biznes sub'yektlari uchun zamonaviy va innovastion soliq turidir. U bo'yicha belgilangan soliq stavkalari ham tabaqalashgan. Bunda soliq stavkasining tabaqalashtirish mezoni asosan korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati sohalari bo'yicha berilgan. Ya'ni, tayyorlov va ta'minot, vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar uchun soliq solinadigan bazaga nisbatan 33 foiz, sanoat sohasidagi mikrofirma va kichik korxonalar uchun 5 foiz, umumiy ovqatlanish korxonalari uchun 10 foiz, qurilish tashkilotlari uchun esa 5 foiz qilib belgilangan.

Bundan tashqari yagona soliq to'lovi bo'yicha turli imtiyozlar ham belgilab berilganki, ularning borligi tadbirkorlik sub'yektlari uchun rag'batlantiruvchi omillarni bajarishi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha eng kam me'yorlari belgilab qo'yilgan. Bu esa korxonalarni ish samaradorligini oshirishga, rentabelli faoliyat yuritishga majbur qiladi. Ular korxonalarning faoliyat yuritsa ham, faoliyat yuritmasa ham egallab turgan er maydonlaridan kelib chiqib minimal miqdorini to'lashini ta'minlaydi. Agar yagona soliq summasi eng kam me'yordan kam bo'lsa, kam summani qo'shimcha to'lanishi belgilab qo'yilgan.

2011 yilning 1 iyulidan boshlab yagona soliq to'lovi to'lovchilari yagona soliq to'lovini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tegishli yil uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha, lekin eng kam miqdordan egallab turgan er maydonidan kelib chiqib, pasaytiruvchi koeffitsientlarni hisobga olgan holda

hisoblab chiqarilgan er solig'ining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydilar.

Misol uchun, Samarqand shahrida savdo maydoni 50 kv.metr bo'lgan listenzion chakana savdo korxonasi faoliyatini ko'rib chiqaylik. Bunda 2015 yilda Samarqand shahri bo'yicha er solig'i 4 zonasi 12057408 so'mni tashkil etadi. Demak, soliqning eng kam miqdori (pasaytiruvchi koeffitsientlar bo'lmagan holda) quyidagicha bo'ladi:

$$S=3 \times 0,005 \times 12057408 = 180861,12$$

Yillik summani 4 ga bo'lsak, choraklik summa hosil bo'ladi ($180861,12:4=45215,28$). Soliq ushbu miqdordan kam bo'lmasligi lozim.

Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishini hisobga olgan holda yagona soliq to'lovining to'lanishi lozim bo'lgan summasini aniqlash uchun to'lovchilar quyidagilarni hisoblab chiqaradilar:

- yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini;
- yagona soliq to'lovining hisob-kitob summasini;
- yagona soliq to'lovining qo'shimcha hisoblangan summasini.

Ba'zi chakana faoliyat turlari bo'yicha (listenziyalanadigan chakana savdo bundan mustasno) eng kam ish haqiga karrali miqdorlar belgilanganki, ularning faoliyat turlaridan kelib chiqib yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqdan kam bo'lmasligi ta'kidlab o'tilgan.

Misol uchun, Samarqand shahrida faoliyat yurituvchi (turg'un shahobchalarda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bilan shug'ullanuvchi) korxona 1 shahobcha uchun 6,5 karrali ish haqi miqdoridan kam bo'lmagan yagona soliq to'lovi eng kam miqdori belgilangan. Ya'ni $6,5 \times 118400 = 769600$ so'mni tashkil etadi. Oylik yagona soliq to'lovi miqdori ushbu summasidan kam bo'lganda, qo'shimcha soliq hisoblab to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, yagona soliq to'lovini to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar ba'zi bir sabablarga ko'ra (ta'minotchilarning xomashyo va materiallarni o'z vaqtida etkazmasligi, ijara shartnomalarining bekor qilinishi va boshqa bilvosita sabablar) faoliyat yurita olmaydilar. Bu sabablar bevosita korxona

xohishi bilan atayin qilinmagan sabablar bo'lib hisoblanadi. Ammo yagona soliq to'lovi ushbu sabablarga qaramasdan (ma'lum davr bo'yicha samarasiz faoliyat bo'lishiga qaramasdan) bazaviy stavkalar bo'yicha soliq to'lashga majbur qiladi.

To'g'ri, yagona soliq to'lovi bir necha soliqlarning o'rniga va resurslardan samarali foydalanish uchun vujudga kelgan. Ammo faoliyat yuritmay soliq to'lash soliq to'lovchilarning tadbirkorlikka qiziqishini so'ndirishga olib keladi. Oxir-oqibatda tadbirkor yashirin faoliyat yuritishga harakat qiladi.

Bozor iqtisodiyotining pirovard maqsadi maksimal miqdorda foyda olishdir, buning uchun esa tadbirkorlik sub'yektlari xizmatlar sifatini yaxshilash, moddiy, mehnat va boshqa xarajatlarni tejash, jarimalarga yo'l qo'ymaslik, soliq yukini pasaytirish kabi tadbirlarni amalga oshirishga harakat qiladilar.

Shuningdek, yagona soliq to'lovining stavkasi umumiy ovqatlanish korxonalari uchun 10 %, vositachilik korxonalari uchun esa 33 % yuqori stavkalar ekanligini ta'kidlash lozim. Ushbu holatda korxonalar katta miqdorda soliq to'layotganligini, xarajatlarning yuqoriligini va natijada sotish narxlarining ko'tarilayotgani, ba'zi tadbirkorlarning yashirin faoliyat yuritayotganliklarini aytib o'tish lozim. Ushbu stavkalarni ham yana bir bor ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Soliqlar tadbirkorlik sub'yektlari uchun yuk bo'lmasligi, ular o'z ixtiyorlari bilan to'lashlari uchun sharoit yaratish lozim. Aytish lozimki, yagona soliq to'lovi va uning bazaviy stavkalarni qo'llash bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan. Ammo savdo korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarning hozir uchrab turgan yopilish holatlari sabablarini chuqurroq o'rganib chiqish va ular faoliyatining jonlanishiga hamda shu orqali katta iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni echish yo'llarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirkorlik sub'yektlarining soliq savodxonligini oshirishni kuchaytirish talab etiladi. Yangi tashkil etayotgan korxonalar soliq, moliya va boshqa tizimlardagi qonuniyatlarini bilmay turib, faoliyat yuritishga kirishmoqdalar. Oxir-oqibatda soliqlar, yig'imglar hamda penya va jarimalar ularning gardaniga tushgan og'ir yuk bo'lib, o'z faoliyatlarini tugatish bilan yakunlanmoqda.

Yagona soliq to'lovining eng kam miqdorining kiritilganligi davlat byudjetiga to'lovlarning tushishiga o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. U tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni rag'batlantirishga va ish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Tadbirkorlik sub'yektlarini erkinliklarini ta'minlash, ularga imtiyoz va engilliklar berish, rag'batlantirish milliy iqtisodiyotni yuksaltirish va aholi farovonligini ta'minlashga olib keladi.

Kichik biznesni soliqlar vositasida rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu barcha soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortish shartlarini yagonalashtirish, adresli va asoslanmagan imtiyozlarni bekor qilish, mehnatga haq to'lash fondidan soliq yukini kamaytirishdir.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes sub'yektlarni soliqqa tortishda alohida imtiyozli usul, ya'ni soddalashtirilgan soliq tizimidan keng foydalaniladi. Soliq amaliyotida kichik biznesni rag'batlantirish uchun firmalar tomonidan foydani yangi uskunalari, qurilish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashga sarflashni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini qo'llash keng tarqalgan. Foyda hisobidan soliqqa tortilmaydigan, belgilangan tartibdagi fondlarni shakllantirishga ruxsat berish keng qo'llaniladi. Yagona soliq to'lovining joriy etilishi, kichik biznes sub'yektlarini soliqqa tortishni va uning hisobotini sezilarli darajada soddalashtirdi va uning rivojlanishini rag'batlantirdi.

Yagona soliq to'lovining joriy etilishi, mikrofirma va kichik korxonalar hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishni va uning hisobotini sezilarli darajada soddalashtirdi va uning rivojlanishini rag'batlantirdi.

Internet orqali soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish, soliqlarni to'lash muddatining qisqartirilgani va soliq yukini kamaytirilgani, korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ruxsat berish tusidagi hujjatlar va litsenziyalar olish, mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish mexanizmlarining soddalashtirilgani, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining xom ashyo va tovar resurslaridan foydalanishi kengaytirilgani bilan bog'liq o'zgarishlar aksariyat hollarda ijobiy

baholanmoqda. Tadbirkorlik sub'yektlarini tekshirish, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan qonunbuzarlik va qoidabuzarliklar bo'yicha javobgarlikka tortishning tartibi ham liberallashtirildi.

Kichik tadbirkorlikning ichki imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish maqsadida uning faoliyati uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarur. Soliq yukini haqqoniy kamayishi va soliqqa tortish tizimi, hisob-kitob hamda hisobotni soddalashtirish kichik tadbirkorlik sohasida davlat siyosatining amalga oshishi yo'lida sezilarli qadamlardan biri bo'lishi lozim. Kichik tadbirkorlikni soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlardan xabardor qilish masadida rahbar tadbirkorlar bilimi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish, davra suhbatlarini tashkil qilish, axborot-konsalting markazlari faoliyatini faollashtirish, tadbirkorlarning, soliq organlari vakillarining soliq savodxonligini oshirish va soliqqa tortishda xatolardan ogoh bo'lish uchun ommaviy axborot vositalaridan muntazam va keng tarzda yoritib borish lozim. Ushbu chora tadbirlarning qabul qilinishi O'zbekistonda kichik biznesning rivoji uchun iqtisodiy muhitni tubdan yaxshilaydi hamda milliy iqtisodiyotda uning ahamiyatini oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobini yakuni bo'yicha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mikrofirma va kichik korxonalar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini oxirgi yillarda takomillashtirilishi hamda imtiyozli soliq tartiblarining amal qilinishi natijasida mamlakatimizda iqtisodiy o'sishga erishilib kelinmoqda. Iqtisodiyotni modernizastiyalash sharoitida mikrofirma va kichik korxonalar zimmasidagi soliq yuki darajasini kamaytirish dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga kelib chiqib davlat iqtisodiyotida soliq yuki darajasini optimallashtirish chora-tadbirlari borasida soliq yuki darajasini asosli ravishda kamaytirib borish, bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatining optimal darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va ularning faoliyat yuritishini engillashtirish bilan bog'liq 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Xususiyl mulkdorlar va tadbirkorlarning qonuniyl huquqlarini himoya qilish, ularning faoliyati kafolatlarini kuchaytirish masalasini hal etishda sud organlari rolini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Iqtisodiy islohatlar sharoitida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish sharoitida yagona soliq to'lovi bo'yicha taqdim etilgan preferentsiyalar samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, xususiyl mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mikrofirma va kichik korxonalar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, ular zimmasidagi soliq yuki darajasini optimal variantini aniqlash masalasi muammoli masalalardan biri bo'lib, optimal soliq yukini belgilash lozim. Chunki soliq yukining optimal darajasi sub'yektlarning moliyaviyl xo'jalik faoliyatini rag'batlantirsa, davlat byudjetiga doimiy soliqlar tushumi bo'lishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar vositasida mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyati shakllanishini tartibga solish, ishlab

chiqarish, xizmat ko'rsatish va mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmi va uslubiyoti yordamida rag'batlantirish soliq siyosati istiqbollarini asosi hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliq-huquqiy maqomi va ularni soliqlar vositasida rag'batlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mikrofirma va kichik korxonalar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, soliq yuki darajasini optimal variantini aniqlash va belgilash lozim.

Bitiruv malakaviy ishimizning nihoyasida iqtisodiy islohatlar sharoitida mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishni o'rganish asosida olingan asosiy xulosa va takliflarni qisqacha aks ettiramiz.

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansalar tadbirkorlik faoliyati davomida yagona soliq to'lovi va yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan besh yil muddatga dastlabki uch yil davomida to'liq ozod qilish, to'rtinchi yil belgilangan stavkani 30%ga pasaytirish va beshinchi yil belgilangan stavkani 50%ga pasaytirish lozim.

Ikkinchidan, yagona soliq to'lovni hisoblash va to'lashda joriy etilgan eng kam me'yorlarni mikrofirma va kichik korxonalarga hamda fermer xo'jaliklariga bekor qilish lozim.

Uchinchidan, davlat soliq xizmati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va

Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-sonli qaroridan kelib chiqib mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortish bo'yicha soliq to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun amaliy tavsiyalar va tushuntirishlar ishlab chiqish lozim.

To'rtinchidan, mikrofirmalar, kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklari uchun soliq yukini pasaytirish va yagona ijtimoiy to'lov stavkasini mehnatga haq to'lash fondidan va mehnat shartnomasi asosida xodimlarga to'lanadigan mablag'lardan kelib chiqib tabaqalashtirilgan holda ishlab chiqish lozim. Bu mikrofirma va kichik korxonalarda ish o'rinlarini ko'payishiga va xodimlarning daromadini oshishiga olib keladi.

Beshinchidan, mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishda tadbirkorlik sub'yektlarining huquqiy savodxonligini, bilim va tajribalarini oshirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanishni tashkil etish lozim.

Oltinchidan, tadbirkorlik sub'yektlarining soliq va statistika hisobotlari elektron shaklda topshirishni soddalashtirib takomillashtirish va davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq va statistika hisobotlarini elektron shaklda topshirish bo'yicha maslahat xizmatlarini rivojlantirish lozim.

Etinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish tartibini yanada soddalashtirish lozim.

Sakkizinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga kelib chiqib davlat iqtisodiyotida soliq yuki darajasini optimallashtirish chora-tadbirlari borasida soliq yuki darajasini asosli ravishda kamaytirib borish, mikrofirmalar va kichik korxonalarni soliqqa tortishda bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatining optimal darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

To'qqizinchidan, mikrofirma va kichik korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish yagona soliq to'lovi stavkalarini pasaytirish orqali iqtisodiyotdagi tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini yanada jonlantirish muhitini shakllantirish lozim.

O'ninichidan, yagona soliq to'lovi stavkasini faoliyat turlari o'rtasida tabaqalashtirish, yuqori foyda bilan ishlovchi korxonalarga yuqori stavkani va kam foyda bilan ishlovchi korxonalarga pasaytirilgan stavkani belgilash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2015 y. 40 b.

1.2. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-396-sonli Qonuni

1.3. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 31 dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2016 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-398-sonli Qonuni

1.4. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 4 dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-379-sonli Qonuni.

1.5. O'zbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2014 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-52 (604) son Qonuni, 2013 yil 25 dekabr.

1.6. O'zbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2013 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek soliq hisobotini taqdim etish davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-343 son Qonuni, 2012 yil 25 dekabr.

1.7. O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni, 2012 yil 26 aprel.

1.8. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda O'RQ- 360- son Qonuni

1.9. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

2011 yil 30 dekabr.

1.10.O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2013 yil yanvar.

1.11.«Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1997 yil 29 avgust, 1-2 b.

1.12.O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 may.

1.13.O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni, 1999 yil 2 fevral

2. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 9 fevraldagi «Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturi to'g'risidagi PQ-2487-son qarori.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 18 fevraldagi «Keksalarni e'zozlash yili» davlat dasturi to'g'risida»gi PQ-2302-sonli qarori.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi "Obod turmush yili" davlat dasturi to'g'risida" PQ-1920-sonli qarori.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 fevraldagi "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi" PQ-1717-sonli qarori.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 16 martdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2507-son qarori

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2455-sonli qarori

2.7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda «2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2460-sonli qarori

2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli qarori.

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2013 yil 25 dekabrdaqi PQ-2099-sonli qarori.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2012 yil 25 dekabrdaqi PQ-1887-sonli qarori.

2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2011 yil 30 dekabrdaqi PQ-1675-sonli qarori.

2.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 24 avgustdaqi 4354-sonli farmoni.

2.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2011 yil 25 avgustdaqi PQ-1604-son qarori.

2.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldaqi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidaqi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4296-sonli Farmoni.

2.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 iyuldaqi «2011—2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1590-son qarori.

2.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydaqi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni

ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4725-son Farmoni

2.17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 9 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining Prezidentining ayrim Farmonlariga o'zgartishlar
kiritish to'g'risida”gi PF-4677-sonli Farmoni

2.18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 18 iyulda
“Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va
ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi
4453-sonli Farmoni

2.19.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyulda
muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi
qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4232-sonli Farmoni.

2.20.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyunda
Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi
qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-3620-sonli Farmoni

2.21.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrda
«Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish
chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4053-son Farmoni.

2.22.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrda
«Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash
to'g'risida»gi 4010-son Farmoyishi.

2.23.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrda
«Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror
ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi
to'g'risida»gi 4058-son Farmoni.

2.24.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari
tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy
talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Qarori." Xalq
so'zi"gazetasi 15.06.2005 y.

2.25.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston

Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2010 yil 24 dekabrda 1449-sonli Qarori

2.26.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2009 yil 22 dekabrda 1245-sonli qarori

2.27.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2008 yil 29 dekabrda 1024-sonli qarori

2.28.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvarda PQ 1271- sonli qarori. «Barkamol avlod yili davlat Dasturi»

2.29.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevralda PQ-805 sonli qarori 1-ilovasi. "Yoshlar yili davlat Dasturi"

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa xuquqiy-me'yoriy xujjatlar

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 fevralda «2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi 55-son qarori

3.2. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi,O'zbekiston Respublikasi davlat soliq Qo'mitasining2016 yil 9 martda «Yagona ijtimoiy to'lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida»gi 13-son, 2016-11-son qarori

3.3. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq Qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016 yil 25 martda «Xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlari joriy etilishini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2016-15-son,18-son qarori

3.4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 14 iyuldagi 49, 73, 2014-15-son Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida qarori

3.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 2 oktyabrda 281-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim toifadagi yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar berish tartibi to'g'risidagi nizom.

3.6. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 28.02.2013 yil 28 fevraldagi 20 sonli, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining 2013 yil 28 fevraldagi 2013-10 sonli "Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori

3.7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2013 yil 28 fevraldagi 20, 2013-10-son qaroriga muvofiq "Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi" nizom

3.8. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasining 2006 yil 29 sentyabrdagi 2006-40, 6-son qarori (ro'yxat raqami 1633, 2006 yil 31 oktyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 43-44-son, 434-modda) bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olishning xabardor qilish tartibida ro'yxatga oluvchi organlar va davlat soliq xizmati hamda davlat statistika organlari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi to'g'risida»gi yo'riqnoma.

3.9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6-sonli Qarori.

3.10. "Bevosita xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 3 avgustdagi Qarori. // "Soliqlar va bojxona xabarleri" gazetasi, 2005 yil 5 dekabr, № 49.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

4.1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohatlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. – "Xalq so'zi", 2016 yil 16 yanvar №11 (6446)

4.2. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish- ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Vazirlar Mahkamasida 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2015 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi. – "Xalq so'zi", 2015 yil 17 yanvar

4.3. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Prezident Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – "Xalq so'zi", 2014 yil 18 yanvar

4.4. Islom Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. T.: O’zbekiston, 2013. – 28 b.

4.5. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. T.: O’zbekiston, 2012. – 36 b.

4.6. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlarga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // “Xalq so’zi” gazetasi, 2011 yil 22 yanvar.

4.7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir – T.: “O’zbekiston”, 2010. 80 bet.

4.8. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi, Xalq so’zi, 2010 yil 29 yanvar

4.9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. -T.: «O’zbekiston», 2009yil. 56 bet.

4.10. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish- davr talabi» -T.: Xalq so’zi, 14 fevral, 2009 yil.

4.11. Karimov I.A. «Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash-barcha islohat va o’zgarishlarimizning bosh maqsadidir» -T.:Xalq so’zi, 2008 yil., 9 fevral, № 28 (4438) 1-3 betlar.

4.12. Karimov I.A. “Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo’lidan izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir”.- “Xalq so’zi”, 13 fevral 2007 yil. 2-5 betlar.

4.13. I.A Karimov Uzbekistan buyuk kelajak sari. -T.: O’zbekiston.

4.14. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yilning mustaqil taraqqiyot yo'lida- – Toshkent, : «O'zbekiston», 2007.-40 b

4.15.Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: «O'zbekiston», 2002.- b. 210-b.

5. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va maqolalar to'plami

5.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: “O'qituvchi” NMIU. - 2012. – 382 b.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -376 b.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 125 bet.

5.4. Alimardonov M.I., Xudoyqulov S.K.,Yusupov O.A., Agzamov A.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik. – T.: TDIU, 2013. 320 bet.

5.5. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/ Toshkent moliya instituti.- Toshkent: “Noshir”, 2012. 712 bet.

5.6. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik- T.:Sharq, 2009. 448 bet.

5.7. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent: Akademiya, 2002.

5.8. Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? // Soliq akademiyasi. – Toshkent, 2006.

5.9. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari (o'quv qo'llanma) / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent. 2007.

5.10. Sh. Toshmatov va b. Soliq to'lovchilar bilan ishlash. O'quv qo'llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 26 b.

5.11. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent: "G'.G'ulom", 2000.

5.12. Xoliqulov A.R. Erkin iqtisodiy zonalar: nazariy asoslari va jahon tajribasi. T.: JIDU. 2002.

5.13. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.

5.14. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T.: 2007. – 320 b.

5.15. Евстигнеев Э.И. Налоги и налогообложение – М: Инфра- М, 2001.

5.16. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение- М: Инфра – М, 1999.

5.17. Миляков Н. В. Налоги и налогообложение- М: Инфра- М, 2000.

5.18. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005. – 544 b.

5.19. Temur tuzuklari T: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va sanat Nashriyoti 1996 yil.

5.20. Toshmatov Sh., Juraev A., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa torish T.: – "Norma" nashriyoti - 2009 yil 183 bet.

5.21. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. – 247 b.

5.22. Yo'ldoshev M, Tursunov Y. Moliya huquqi- T.: "Mehnat" 1999.

5.23. Юткина Г.Ф. Налоги и налогообложения. Учебник. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 509 с.

6. Foydalanilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari

6.1. Sanaqulova B.R., Badalov SH.J. Soliq yuki: uni aniqlash va optimallashtirish yo'nalishlari. TMI. T.: "Iqtisod-moliya", 2015. 120 bet

6.2. Botirov A.A. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. 2012 y.

6.3. Sanaqulova B.R. Kichik korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish va soliq yukini kamaytirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. 2011 y.

6.4. Mutalova D.M. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. 2011 y.

6.5. Jo'raev T. Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida. Xalq so'zi. 2003 yil 20 sentyabr.

6.6. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. –T.: Yangi asr avlodi, 2002. –126 b.

7. Jurnal va gazetalaridagi maqolalarga havolalar

7.1. Normirzaev U.X. Iqtisodiyotni tartibga solishda soliq imtiyozlarining ahamiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi roli. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasi Soliq Akademiyasi. 2014 yil.

7.2. Sanakulova. B. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliq yukini kamaytirish masalalari. TMI. 2014 yil.

7.3. Gadoev E.F. Investitsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning roli. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasi Soliq Akademiyasi. 2013 yil.

7.4. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya-kredit muassasalarining investitsion faolligini oshirish" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. –T.:TDIU, 2013. -552 b.

7.5. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank- moliya tizimini barqarorligini ta'minlashni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjumani , -T., 2012 yil.

7.6. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruza tezislari to’plami. –T.: “Iqtisodiyot”, 2011. -279 b. TDIU, (2011 yil 16 mart)

7.7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari.-T.: DSQ Soliq akademiyasi, 2010 yil 21-22 may.

8. Hisobotlar va statistik materiallar

8.1.«Soliqlar va bojxona xabarlar» moliyaviy iqtisodiy gazetasi
2013-2016 yillar

8.2.O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo’mitasi ma’lumotlari

8.3.O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo’mitasi ma’lumotlari

8.4.Qoraqalpog’iston Respublikasi To’rtko’l tumani Davlat soliq inspeksiyasining hisobot materiallari

9. Internet sahifalariga havolalar

9.1.www.soliq.uz

9.2.www.stat.uz

9.3.www.mf.uz

**Kichik biznes sub'yektlari uchun soddalashtirilgan soliq
tizimini qo'llashning huquqiy asoslari**



• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi "Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risidagi" 159-sonli qarori
• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi "Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'ini joriy etish to'g'risida" gi PF-2086-sonli Farmoni
• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoni

**1-rasm. Kichik biznes sub'yektlari uchun soddalashtirilgan soliq
tizimini qo'llashning huquqiy asoslari²⁵**

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari